

**Ixtiyorbek Norov**

“CENTER FOR ADVANCED STUDIES” Bosh menejeri

Adabiyotning soʻz sanʼati ekanligi haqidagi haqiqat juda qadim zamonlardan beri takrorlanib kelinadi. Demakki, adabiyotning bosh unsuri soʻz, umuman, tildir. Adabiy asarning sanʼat darajasiga koʻtarila olishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balogʻatiga bogʻliq ekanligi shubhasiz. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining oʻziga xosligi tahlil etilmogʻi lozim.

Tilshunoslik fanida zoonimlarning til xususiyatlarini ilmiy asosda tadqiq etish borasida qator jiddiy ishlar amalga oshirilganligi ilm ahliga, ayniqsa, onomastlarga yaxshi ayon. Maʼlumki hozirgi zamon turkiy tillaridagi zoologik terminologiya chuqur tarixiy ildizlarga, qadimgi turkiy, eski turkiy va eski oʻzbek adabiy til obidalariga borib taqaladi.

Zoonimlar, zoonim komponentli matnlarning lingvistik xususiyatlari D.X.Bazarova, H.A.Saidova, Dj.Metyakubov, B.B.Abdushukurov, N.R.Nishonova, B.Zaripov, B.M.Joʻraeva, D.M.Yuldasheva, G.E.Hakimova, A.J.Omonturdiyev, SH.Noralieva kabi olimlar tomonidan oʻrganilgan. Mazkur olimlarning ishlarida turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar, zoologik terminlarning shakllanish bosqichlari, maqollarning til tizimida tutgan oʻrni, semantik-uslubiy xususiyatlari, zoonimlarning maʼno koʻchirlari, badiiy sanʼat turlarini hosil qilishdagi, inson xarakterini ifodalashdagi ahamiyati, “hayvon” arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili, oʻzbek folklorida boʻri obrazining mifologik talqini, shaxs tavsifida hayvon nomlaridan foydalanish, badiiy matnlarning antropotsentrik talqini, oʻzbek bolalar folklori tilida zoonimlar, zoonim komponentli frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlari singari masalalar tahlil qilingan.

Leksika til strukturasi boshqa sathlariga nisbatan anchayin harakatchan va oʻzgaruvchidir. Bu sath soʻz yasash, soʻzlarning yangi maʼnolar kasb etib rivojlanishdan tashqari, boshqa tillardan lugʻaviy birliklar oʻzlashtirish yoʻli bilan ham muntazam boyib boradi. Til va uning lugʻat tarkibining boyishida boshqa tillardan soʻz olishning ahamiyati katta. Bu yoʻl orqali til tashqi omillar evaziga rivojlanadi.

Lugʻat sostavi tilining eng beqaror sathi hisoblanadi. Baʼzi davrlarda til leksikasidagi chet soʻzlar miqdori tilning oʻz soʻzlari miqdoridan koʻpayib ketadi. Oʻzbek xalqi, maʼlumki, eng qadimgi turkiy urugʻ va qabilalardan oʻsib chiqqan, demak, uning tili ham shu urugʻ va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, moʻgʻullar va ruslar istilosi, qardosh qozoq, qirgʻiz, turkman, tojik xalqlari bilan qoʻshnichilik munosabatlari ham oʻzbek tili taraqqiyotiga jiddiy taʼsir oʻtkazgan, bunda ayniqsa, turkiy-arab, oʻzbek-arab, oʻzbek-tojik, oʻzbek-qozoq, oʻzbek-qirgʻiz va oʻzbek-turkman billingvizmi kabi omillarning roli katta boʻlgan.

Hozirga qadar mavjud darsliklarda oʻzbek tili leksikasidagi soʻzlarni asosan ikki guruhga ajratib tahlil etib kelinmoqda. Oʻzbek tili leksikasini tarixiy etimologik nuqtayi nazardan

tekshirish ikki masalaga qaratiladi: a) o'zbek tili leksikasidagi o'z so'zlarni belgilash; b) o'zbek tili leksikasidagi o'zlashgan so'zlarni belgilash. Mana shu asosga ko'ra, o'zbek tili leksikasidagi so'zlarni tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan ikki katta qatlamga bo'lish mumkin:

1. O'zbek tili leksikasidagi o'z qatlam.
2. O'zbek tili leksikasidagi o'zlashgan qatlam.

Ana shu tarixiy jarayonlar nuqtayi nazaridan qaralganda, o'zbek tili leksikasidagi o'z qatlamga umumturkiy tildagi kiyim va gazlama nomlarini kiritish mumkin. O'zlashgan qatlamga esa fors-tojik, arab, ruscha-baynaminal kiyim va gazlama nomlarini kiritdik.

1. O'zbek tili leksikasidagi o'z qatlam.

Ko'pchilik turkum xalqlar tilida qo'llanadigan, barcha turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar umumturkiy so'zlar deyiladi. Bu so'zlar turkiy qabilalarning goh qo'shilishi, goh ajralishi natijasida yuzaga kelgan, hozirda turkiy xalqlar deb nomlanadigan kishilar tiliga mansub so'zlardir. Oltoy tillar oilasining turkiy guruhida (turkumida) 24 ta til: o'zbek, qozoq, uyg'ur, boshqird, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon, no'g'oy, tatar, chuvash, yoqut, tuva, shor, qoraim, qo'miq, gagauz, xakas, balqar, oyrot, karagas, turk, qorachoy, oltoy turklari tillari mavjud.

Umumturkiy tildagi nomlar.

Zoonimlarining bir qismi turg'un bo'lib, kelib chiqish tarixiga ko'ra uzoq davrlarga borib taqaladi. Umumturkiy tildagi kiyim va gazlama nomlari eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha qo'llanilib kelmoqda: chumchuq qo'zichoq,

echkemar, echki, sirtlon, qo'chqor, qo'tos, suvarak, mushuk, laycha, yo'lbars, arslon, qo'ng'iz, g'oz, hakka, ho'kiz, eshak, o'rdak, qarg'a, qashqir, qoplon, qovog'ari, qiriqoyoq, quyon, qumursqa, turna, to'ng'iz, to'rg'ay, uloq, ukki, xachir, xo'tik, chigirtka, chiyabo'ri, yumronqoziq, ayiq, burgut bo'ri, ari, beshiktebratar, buzoq, buzoqboshi, biya, bo'taloq, buqa, bolari, ilon, it, kaltakesak, kapalak, kaklik, kiyik, ko'ppak, novvos, ninachi, olaqarg'a, olmaxon, ohu, ot, popushak, serka, qo'y, sigir, sichqon, taka, tovuq, toy, tulki, tulpor, tuya kabi.

Keltirilgan zoonimlar boshqa umumturkiy tillarda ham ayrim fonetik o'zgarishlar bilan qo'llanadi.

Shunga ko'ra o'zbek tiliga o'zlashgan zoonimlarni quyidagi guruhlarga bo'lib o'rgandik:

1. Fors-tojikcha nomlar;
2. Arabcha nomlar;
3. Ruscha-baynalminimal nomlar.

2. Fors-tojikcha nomlar. O'zbek va tojik xalqlari qadimdan bir hududda (yoki qo'shni), bir xil ijtimoiy tuzumda yashab kelgan va madaniy, savdo-sotiq munosabatlarda bo'lgan. Bu ijtimoiy omillar hudud xalqi tiliga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bundan tashqari,

fors-tojik tillaridagi soʻzlarning oʻzbek tiliga oʻzlashtirilishida quyidagi omillarning alohida oʻrni bor:

1. Oʻzbek-tojik va tojik-oʻzbek ikki tilliligining keng tarqalganligi;
2. Tojik va fors tillarida ijod qilish anʼanalarining uzoq yillar davom etganligi;
3. Adabiyot, sanʼat, madaniyat, urf-odatlardagi mushtaraklik va boshqalar.

Tojiklar qadimiy Eron tilida soʻzlashuvchi mahalliy aholining avlodlari hisoblanadi. Tojikiston hududida ular eramizga qadar bir necha yil oldin yashagan. VIII-X asrlardan (arablar istilosidan) keyingi davrda, ular doimo dehqonshilik va bogʻdorshilik bilan band boʻlishgan. XII-XIII asrlarda Amudaryo va Sirdaryo oraliqlarida turkiy tilda soʻzlashuvchi xalq oʻzbeklar soni orta borgan. XIII asrda moʻgʻullar istilosi, XVI asrda Oltin Oʻrdaning emirilishi va Dashti qipchoq urugʻlarining ortishi hududdagi madaniyatning, mehnat faoliyatining oʻzgarishiga olib kelishi barobarida zoonimlarning oʻzlashishiga sabab boʻlgan.

Bunday omillar zoonimlarning tarkibida ham oʻz aksini topgan. Masalan, bulbul joʻja, zagʻizgʻon, zogʻcha, kaptar, kalamush, kuchuk, laylak, pashsha, xoʻroz. sher kabi.

3. Arabcha nomlar. Arab tilidan soʻzlarning oʻzlashtirilishi VIII asrdan boshlanib, IX-X asrlarda ansha faollashgan. Arab tilidan soʻz oʻzlashtirilishiga quyidagi omillar sabab boʻlgan: a) arablar istilosi; b) islom dinining keng tarqalganligi; v) arab yozuvining qoʻllanila boshlaganligi; g) madrasalarda arab tilining oʻqitilishi; d) turkiy-arab ikki tilliligining tarkib topganligi; e) olimu fuzalolarning arab tilida ijod qilganligi va boshqalar.

Oʻzbek tiliga arab soʻzlari shunchalik singib ketganki, hozirgi davrda arab soʻzlarining oʻzbekcha yoki arabcha ekanligini ajratish qiyin boʻlib qoladi. Bu holat zoonimlarda ham oʻz aksini topadi. Bunday nomlarga: maymun, tovus, timsoh, fil kabi soʻzlarni kiritish mumkin.

5. Russha-baynalminal nomlari. XIX asrning 2-yarmidan Markaziy Osiyo, jumladan, Oʻzbekiston chor Rossiyasining mustamlaka mamlakatiga aylandi. Rus tilining oʻzbek tiliga taʼsiri shu davrdan boshlandi. Rus tilidan, rus tili orqali boshqa tillardan koʻplab soʻzlar oʻzlashdi.

Oʻzbek tiliga rus tilidan va rus tili orqali Evropa xalqlari tillaridan (frantsuz, italyan, nemis, ingliz, ispan) soʻz kirishi ikki tarixiy davrni oʻz ishiga oladi:

1. XIX asrning 2-yarmidan XX asrning boshlarigacha boʻlgan davr.
2. 1917 yildan keyingi davr.

Rus tilidan soʻzlar ikki yoʻl bilan oʻzlashdi:

1. Rus ishchilari, ustalari, rus askarlari, chinovniklarining mahalliy aholi bilan turli xildagi aloqalari bilan ogʻzaki nutq orqali: shilon (chlen), adbakat (advokat), apisor (ofitser), iskalat (sklad), axran (oxrana), choynay (choynak) kabi.

2. Matbuot orqali: ayrapilan (aeroplan), pabrik (fabrika), poshta (pochta), zovut (zavod), uez (uezd), kridit (kredit), banka (bank), veksil (veksil) kabi.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-6

Rus tili orqali kirgan soʻzlarning baʼzilari dunyodagi koʻpgina xalqlarning tilida tovush tomoni deyarli oʻzgartirilmay ishlatiladigan xalqaro soʻzlardir. Ular, odatda, internatsional (baynalminal) soʻzlar deb yuritiladi. Oʻzbek tiliga oʻzlashgan internatsional soʻzlar tarixiy jihatdan quyidagi tillarga mansub:

Demak, oʻzbek tiliga rus tilidan soʻz oʻzlashtirilishiga koʻproq quyidagi omillar sabab boʻlgan: a) Chor Rossiyasining imperialistik siyosati; b) Sovet imperiyasida rus tilining millatlararo til mavqeiga ega boʻlishi; v) oʻzbek-rus ikki tilliligining tarkib topishi; g) matbuot, radio, televideniya rus tiliga keng oʻrin berilishi va boshqalar.

Bunday omillar zoonimlarda ham oʻz aksini topgan. Masalan zebra, jirafa (fransuzcha), begemot (qadimiy yahudiycha), gʻunajin (moʻgʻulcha) va shu kabi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Norov, I., Yoʻldoshev, J., & Yoʻldoshev, S. (2023). ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS TASHKIL QILISH. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(4), 40-47.
2. Norov, I. (2023). DEFINITION OF ZOONYMS IN UZBEK ARTISTIC WORKS. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(1), 1-6.
3. Shukhratovich, Y. S. (2022). STUDY OF NECRONYMS IN THE TERRITORY OF KARAKALPAKSTAN. Gospodarka i Innowacje., 21, 101-104.
4. Yusupov, S. (2023). Use of Zononyms in Works. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD).